



INSON KAPITALI LOYIHALARINI BOSHQARISHDA DAVLAT SIYOSATINING O'RNI

Sharipova Nodira Raxmonali qizi

Toshkent shahar Biznes va Tadbirkorlik oliy maktabining
loyiha boshqaruvi yo'nalishi magistrature talabasi

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil

Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil

Jurnal soni: 16-B

Maqola raqami: 34

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1320>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

Inson kapitali, davlat siyosati, loyihalarni boshqarish, ta'lim, sog'liqni saqlash, mehnat bozori, innovatsiyalar, moliyalashtirish, monitoring, baholash, raqamli boshqaruv, strategiya, davlat-xususiy sheriklik.

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada inson kapitali tushunchasi, uning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni, davlat siyosatining mazkur jarayondagi strategik ahamiyati, inson kapitaliga oid loyihalarni boshqarish mexanizmlari, moliyalashtirish usullari, normativ-huquqiy asoslar, monitoring va baholash tizimlari hamda xalqaro tajribalar keng qamrovda yoritilgan. Tadqiqot inson kapitali rivojida davlatning ko'p funktsiyali roli, zamonaviy boshqaruv yondashuvlari, ustuvor yo'nalishlar va siyosiy qarorlarning samaradorlikka ta'siri nuqtayi nazaridan chuqur tahlil qilingan. Ushbu maqolada globallashuv sharoitida inson kapitalining davlat taraqqiyotidagi o'rni va dolzarbligi tahlil qilingan bo'lib, uning iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy jarayonlarga ta'siri kompleks yondashuv asosida yoritiladi. Tadqiqotning kirish qismida inson kapitali rivoji zamonaviy jamiyatda barqaror taraqqiyotning asosiy omili sifatida talqin etilib, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, "Yangi O'zbekiston" strategiyasining ustuvor yo'nalishlari konseptual tahlil qilingan. Adabiyotlar sharhida inson kapitali fenomeni chet el va MDH tadqiqotchilari tomonidan sotsiologik, iqtisodiy, etnopsixologik va madaniy-paradigmatik nuqtai nazardan o'rganilganligi, ushbu ilmiy qarashlarning metodologik asoslari ochib berilgan.

Kirish. Jahonda kechayotgan globallashuv jarayonlari dunyo hamjamiyati oldiga inson omiliga har qachongidan ham ko'ra ko'proq e'tibor qaratishni dolzarb muammolar qatoriga qo'yimoqda. Inson kapitali rivoji nafaqat iqtisodiyot, balki butun jamiyatning yangi sifatini shakllantirishda muhim omil bo'lib, milliy va ijtimoiy etnik xususiyatlar asosida uning mohiyati, rivojlanib borish tendensiyalari hamda turmush barqarorligi masalalarini hal etish talab etilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, inson kapitalini yuksaltirish, ta'lim va ilm-fanni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, aholini, ayniqsa yoshlarning salomatligini mustahkamlash, madaniy va ma'rifiy ongini yuksaltirishda zamonaviy ijtimoiy-falsafiy qarashlarda ilgari surilgan intellektual, ta'lim, axloqiy, ijtimoiy kapital omillarini taraqqiyot strategiyalariga moslashtirish hamda inson kapitalining komponentlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda qonun ustuvorligi va inson kapitalini rivojlantirish, adolatli va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish, aholining yashash sharoitlarini yanada yaxshilash yo'nalishlarida islohotlarni amalga oshirilmoqda. "Yangi O'zbekiston" strategiyasining maqsadi – yurtimizning baxtli va barkamol insonlar farovon yashaydigan, ijtimoiy adolat tamoyillari to'liq qaror topgan, dunyoning eng rivojlangan, barqaror o'sayotgan va inson kapitali yuqori bo'lgan demokratik davlatlari qatoridan joy olishini ta'minlashdir. Buning uchun aholining barcha qatlamlariga munosib hayot darajasini va turmush sharoitlarini yaratib berish, ijtimoiy himoya tizimi samarasi, bandlik va daromadlar barqaror o'sishiga erishish, jamiyatning umumiy madaniyati, bag'rikenglik va mehribonlik fazilatlarini yanada oshirish bo'yicha olib borayotgan ezgu va savobli ishlarimizni yanada kuchaytirishni o'zimizning burchimiz, deb hisoblaymiz¹.

Adabiyotlar tahlili. Inson kapitaliga oid masalalar va u bilan bog'liq ijtimoiy muammolar soha mutaxassislari tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy, etnopsixologik, huquqiy hamda ma'naviy-siyosiy nuqtayi nazardan tadqiq etilgan. XX asr fanining yorqin namoyondalari D.Tomson va X.Bekker "sotsial shartnoma" nazariyasi, Xose Ortega-Gasset, K.Mangeym, P.Burde, I.Gofman, I.Kon, T.Shanin hamda P.Nora² kabi olimlarning inson kapitalini sotsial fenomen sifatida rivojlanib borishini ijtimoiy etnik yondashuvlar tizimida, ijtimoiy-madaniy kontekstda tadqiq etganlari bunga misol bo'la oladi. Shuningdek, inson kapitali XX asrning 60-yillaridan boshlab mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida iste'molga kiritildi. Qolaversa, Xalqaro Nobel mukofoti sohiblari – T.Shuls va G.Bekker, qolaversa D.Belling bir qator asarlarida ushbu masalaga alohida e'tibor qaratila boshlandi³.

MDH mamlakatlarida inson kapitali mavzusining iqtisodiy-demografik jihatlarini E.Galayeva, A.Dobrinin, S.Dyatlov, E.Serenova va P.Karelyushnikov⁴, ijtimoiy-madaniy tomonlari S.Abashin, V.Achkasov, Yu.Granin, L.Russkix, K.Tuayeva, N.Antonova, N.Jukova hamda T.Stefanenko⁵ kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida identiklikning jamiyatda o'zlikni anglash, ijtimoiy-madaniy tajriba, madaniy-tarixiy xotira va ijtimoiy-madaniy meros bilan bevosita aloqador jihatlarini o'rganilgan.

O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish va uning iqtisodiy fanlar tizimidagi ahamiyati bo'yicha S.G'ulomov, Q.Abdurahmonov, J.Ataniyazov, T.Jalilov, B.Usmonovlar⁶ keng ko'lamli tadqiqotlar olib bormoqdalar. Shuningdek, K.Shoniyoov, A.Ashirov, U.Abdullayev va N.Nazarovlar⁷ ilmiy ishlarida kuzatiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy globallashuv sharoitida inson kapitali davlatlar raqobatbardoshligining asosiy omiliga aylanmoqda. Mehnat resurslarining bilim, ko'nikma, malaka va

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: "O'zbekiston", – 2021. – Б.264.

² Becker H. Discontinuous change and generational contracts. – London, 2000; Kohli M. Aging and justice. Research group on aging and life course. Research Report 74. – Berlin, 2005; Thomson D. Selfish generations. The ageing of the welfare state. – Wellington, 1989; Ортега-и-Гассет. Х. Восстание масс. – М.: АСТ Москва, 2008. – С. 249-347; Гoffman И. Представление себя другим в повседневной жизни. – М.: Канон пресс, 2006; Бурдье П. Социология социального пространства. – М.: Алетея, 2007. – С. 80-278; Шанин Т. История поколений и поколенческая история / Отцы и дети: поколенческий анализ современной России. – М., 2009. – С. 17-38; Ортега-и-Гассет Х., Мангейм К. Очерки социологического знания. Теория познания – мировоззрение – историзм. – М., 1998. – С. 84-85.

³ Schulz T. Capital Formation bi Edukation // Journal of Political Economy. – 1960. – №1. – Р. 25.; Ўша муаллиф: Investment in Human Capital // American Economic Review. – 1961. – №1.; Беккер Г.С. Человеческое поведение: Экономический подход: избранные труды по экономической теории. – М.: ГУ ВШЭ, 2003. – С. 672.; Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования. – М.: Академия, 1999. – С. 949.

⁴ Галаева Е. В. Исследование человеческого капитала в зарубежной литературе: реферат книги Орда Нордхога «Человеческий капитал в организациях» // Общество и экономика. – 1997. – №7-8. – С. 244-255; Добрынин А. И., Дятлов С. А., Циринова Е.Д. Человеческий капитал в транзитивной экономике: формирование, оценка, эффективность использования. – СПб.: Наука, 1999; Коулман Дж. Капитал социальный и человеческий //

Общественные науки и современность. – 2001. – №3. – С. 122-139; Чапенко И. В., Миронова Д. Д. Человеческий капитал и инновационные факторы его развития // Инженерный вестник Дона (Ростов-на-Дону). – 2012. – №2. – С. 153-163; Белеикова О. А. Роль социальных технологий в формировании инновационного потенциала человеческого капитала // Российский гуманитарный журнал. – 2017. – №3. – С. 271-282; ⁵ Русских Л. И. Идентичность: культурная, этническая, национальная. // Вестник ЮрГУ. Серия «Социально гуманитарные науки. – 2013. – С. 178-180, Туаева К. Философские основы национальной идентичности // Вестник университета МГУ. – 2014. – С. 287-292; Ачкасов В. Национальная идентичность как исторический нарратив. // Управленческое консультирование. – 2018. – №10. – С. 19-26;

⁶ Гулямов С., Очиллов Н., Сайдахмедов О. Интеллектуал иктисодиёт самарадорлик омиллари // Ўзбекистон иктисодий ахборотномаси. – 2015. – №6. – Б. 38-41; Абдурахмонов К.Х. Человеческое развитие. Учебник. – Ташкент: ФГБОУ ВО РЭУ им. Г. В. Плеханова, 2014. – С. 320.; Атаниязов Ж.Х., Жалилов Т. Роль человеческого капитала в инновационном Развитии экономики // Халқаро молия ва ҳисоб. – 2019. – №2. – С. 1-9; Усмонов Б. Ш. ва бошқ. Инсон капиталининг шаклланишида таълим ва илм-фаннинг роли (илмий-оммабон рисола). – Самарқанд: СамДУ, 2015. – Б. 83.

⁷ Шониёзов К. Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарк, 2001. – Б. 86.; Аширов А.А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент, 2007. – Б. 275.; Абдуллаев У.С. Фағна водийсида тасноларро жараёнлар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – Б. 143-202; Назаров Н. Марказий Осиёда миллатларро муносабатлар (ижтимоий-фалсафий таҳлил). Монография. – Тошкент: Global Books, 2018. – Б. 256.

salomatlik darajasi iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini belgilab beruvchi strategik resurs hisoblanadi. Shu bois ko'plab davlatlar inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha kompleks loyihalarni amalga oshirmoqda. Ushbu jarayonda davlat siyosatining tizimli, uzoq muddatli va maqsadli yondashuvi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada inson kapitali loyihalarini boshqarish jarayonida davlat siyosatining roli, asosiy yo'nalishlari hamda samaradorlik omillari tahlil qilinadi.

Natijalar. Inson kapitali, yani shaxsiy kapital, odamlarning bilim, malakali, tajribali va sotsial qobiliyatlari, salomatlik, iqtisodiy resurslarga ega bo'lishi va shaxsiy xarakteriga asoslangan umumiy qobiliyatlar to'plami sifatida tavsiflanadi. Inson kapitali, insonlar o'rtasidagi ta'lim, tajriba, salomatlik va iqtisodiy faoliyat kengaytmalidir. Bu esa, inson kapitalining o'rganilishi, o'zlashtirilishi va rivojlanishi uchun har bir insonning o'ziga mahsus va ulkan ahamiyatga ega bo'lgan usullar mavjudligini ko'rsatadi. Inson kapitalin rivojlantirishning asosiy yo'llaridan biri ta'lim va o'qitishdir⁸.

O'z-o'zini o'rganish, malakasini oshirish, yangi bilim va ko'nikmalar olish, insonning kapitalini oshiradi. Buning uchun formal (maktab, o'quv markazi, universitetlar) va informal (kitoblar, onlayn o'qitish resurslari, seminarlar) ta'lim vositalari ishlatish mumkin. Amaliy tajriba, ish bilan bog'li kasb-hunar va ko'nikmalarni rivojlantirishnin muhim qismlarida biridir. Ish bilan bog'liq tajriba olish uchun xalqaro va mahalliy kompaniyalarda ishlash, mentorlik dasturlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Salomatlik, inson kapitalini rivojlantirishning muhim bo'limidir. Sport mashg'ulotlari, salomatlik markazlaridan foydalanish, salomatlikni saqlash, insonning kapitalini oshirishga yordam beradi. Inson kapitalini rivojlantirishning asosiy sharti insonning o'z-o'zini rivojlantirishi, o'zini o'rganishi va o'zlashtirishi. Bu o'z-o'zini tahlil qilish, shaxsiy o'zgarishlarni rivojlantirish, motivatsiya va o'zini rivojlantirish yo'llarini tanlashga asoslangan.

Sotsial kapital, insonning o'zaro aloqalari, tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi va jamiyatda o'z o'rnini olishga yordam beradi. Sotsial tarmoqlarda, jamoatgacha intilishlar, do'stlar va kollegalar bilan yaxshi aloqalar o'rnatish, tadbirlarida ishtirok etish, sotsial kapitalni oshirishga yordam beradi. Vaqtini boshqarish bilan inson, ish bilan bog'liq vazifalarini bajarish, o'quv-mashg'ulotlarga va shaxsiy rivojlantirishga vaqtini ajratish, o'z vaqtini samarali foydalanishni o'rganadi. Bu esa o'z vaqtini nima uchun va qanday foydali foydalanishni tushuntiradi. Fikrlash va tahlil qobiliyatlari kapitalning muhim qismlaridan biridir. Yangiliklarni kuzatib borish, maqolalarni o'qish va muhokama qilish, biror mavzuga oid ko'plab fikrlarni ta'qib qilish va o'z fikrlaringizni boshqalarga yetkazish orqali bu qobiliyatni oshirishingiz mumkin. Bu yo'llar inson kapitalini maksimalashtirishga yordam berishi mumkin.

O'zlashtirish loyihasini boshqarishda, tadbirkorlik va biznes yo'nalishlariga e'tibor berish juda muhimdir. Bu loyihalar orqali, insonlarni o'zlashtirish, xizmatlar va mahsulotlarni sotish, ishchi kadrlarni rivojlantirish va biznesni yanada rivojlantirish mumkin⁹.

MUHOKAMA. Inson kapitalini maksimalashtirish uchun xodimlarga ta'lim va rivojlanish imkoniyatlari taqdim etilishi lozim. Bu loyihalar orqali xodimlarni yangi bilim va ko'nikmalarni o'rganishga imkon berish, ularning professional o'sishini ta'minlash va ularga kengaytirilgan mavqelarda ishlash imkoniyatini berish mumkin. Insonlarni o'zlashtirish loyihalarida ishonch va jamoatchilik muhim ahamiyatga ega. Xodimlarni qo'llab-quvvatlash va ularga ishonch berish, ularni qadr-qimmatini xurmat qilish va ularning ishga qiziqishini oshirishga intilish kerak. Inson kapitalini maksimalashtirish loyihalarini boshqarishda-boshqaruv va monitoring tizimlaridan foydalanish kerak. Boshqaruv tizimi, loyihalarni rejalashtirish, o'zlashtirish natijalarini baholash va o'zgarishlarni kuzatishga imkon beradi¹⁰.

Inson kapitali bahosini maksimalashtirish loyihalarini boshqarishda davlat siyosati, bu loyihalarni rivojlantirish, ularga moliyaviy resurslarni ajratish, qonunlar va huquqiy muhitni yaratish, hamda o'zaro hamkorlikni ta'minlash kabi bir qator muhim chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Davlat siyosati quyidagi asosiy yo'nalishlarga ega:

Davlat siyosati inson kapitali bahosini maksimalashtirish loyihalarini rivojlantirishda o'rnatishda ham muhim rol o'ynaydi. Davlatning inson kapitali bahosini maksimalashtirishga yo'naltirilgan siyosati, insonlarning ta'lim va rivojlanish imkoniyatlaridan foydalanishini ta'minlash, sog'lomlik va barqarorlikni ta'minlash, ish haqini himoya qilish, ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash, ijtimoiy barqarorligi o'stirish va huquqiy muhitni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Davlat siyosati inson kapitali bahosini maksimalashtirishga yo'naltirilgan holatlarda, moliyaviy resurslar to'g'risida qarorlar qabul qilishi, infrastrukturani rivojlantirish, innovatsiyalarni rag'batlantirish, sanoat va xizmat sohasini kuchaytirish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish kabi tadbirlar muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Shuningdek, davlat siyosati inson kapitalini oshirish uchun moliyaviy stimullash, sarmoyalash va tijoratni rivojlantirishning ham muhim bir qismini tashkil etishi mumkin.

Huquqiy muhitni rivojlantirish uchun qonunlarni o'zgartirish yoki yangilash, yuridik tizimni barqaror qilish va adolatli sud tizimini ta'minlash zarur bo'ladi. Bu qonunlar inson huquqlarini himoya qilish, yuridik tashkilotlar va sud organlarining mustahkamlanishi, huquqiy ta'lim tizimini rivojlantirish va boshqalar kabi masalalarni o'z ichiga oladi.

Sarmoya va soliq tizimining inson kapitali bahosini maksimalashtirishga muhim ahamiyati bor. Bu yo'lda davlat soliq tizimini yaxshilash, soliq daromadlarini qat'iy va adolatli hisoblash, investitsiyalar uchun muhim imtiyozlar va stimullar berish, sarmoya va biznes muhitini soddalashtirish, korruptsiyaga qarshi kurashish, sifatli korporativ boshqaruv tizimini mustahkamlash va boshqalar kabi chora-tadbirlarni amalga oshirishi mumkin.

Ta'lim va rivojlanish sohasidagi qonunlar inson kapitali bahosini maksimalashtirishda muhim ahamiyatga ega. Bu qonunlar talabalar va o'qituvchilarning huquqlarini himoya qilish, yuqori sifatli ta'lim tizimini yaratish, kasb-hunar kollejlari va universitetlarni rivojlantirish, yangi texnologiyalar va innovatsiyalar uchun imkoniyatlar yaratish, ta'limning hamjamiyatda rivojlanishini ta'minlash kabi masalalarni o'z ichiga oladi¹¹.

Inson kapitali bahosini maksimalashtirish uchun innovatsiyalar va texnologik rivojlanishning o'z-o'zini rag'batlantirishi zarur. Bu maqsadga yo'naltirilgan qonunlar va siyosiy tadbirlar, innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash, startap sohalarni rivojlantirish, intellektual mulkni himoya qilish, yangi texnologiyalar va ishbilarmonlik modellarini qabul qilish, innovatsiyalarni to'g'risida himoya va rag'batlantirish siyosatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'ladi. Davlat siyosati inson kapitali bahosini maksimalashtirishda iqtisodiy taraqqiyotni ham rag'batlantirishi lozim. Bu maqsadga yo'naltirilgan qonunlar va siyosiy tadbirlar, biznes muhitini soddalashtirish, investitsiyalar uchun sharoitlarni yaxshilash, iqtisodiy ko'rsatkichlarni yuksaltirish, innovatsiyalarni va rivojlanishni rag'batlantirish, ishga qo'yishni oshirish va ish bilan ta'minlash kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi¹².

Bozor mexanizmlari inson kapitalining barcha jihatlarini qamrab ololmaydi. Ta'lim, sog'liq, kasb-hunar o'qitish kabi sohalarida xususiy sektor investitsiya kiritishni kam deb biladi, chunki bu investitsiya qaytimi uzoq muddatga cho'ziladi. Shuning uchun davlat quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Tartibga solish;
2. Moliyalashtirish;
3. Nazorat qilish;
4. Ijtimoiy adolatni ta'minlash;
5. Strategik rejalashtirish.

Davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari:

Ta'lim siyosati-sohani modernizatsiya qilish, o'qituvchilar salohiyatini oshirish;

Sog'liqni saqlash siyosati-profilaktika, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish;

Bandlik siyosati-zamonaviy kompetensiyalarga ega ishchi kuchini yaratish;

⁸Yunusova M. A (2024) Inson kapitalini rivojlanishini, moliyaviy ta'minlashining strategik yo'nalishlari va ularning usullari. World scientific research journal, 10(2), 120-122.

⁹Abduvohidov A. Kamilova S. (2023). Inson kapitalining raqmiy rivojlanishini baholash. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. 1(2), 5-14.

¹⁰Bo'rixadjayeva. M. S. (2023). Yangi o'zbekistonda iqtisodiy tafakkurni shakllantirishning usullari. World scientific research journal, 12(2), 134-138.

¹¹Yahshiyev Sh. (2023) The oretical principles of financial security for the use of management of the economic system of Uzbekistan. Research in development: scientific and practical conferences part-1 2023 1/3 (42-45).

¹²Azamaliyev Q. B. (2021) Inson kapitalining davlat siyosatidagi ahamiyati. Научный журнал. Интернаука. 17(193), 72-74.

Innovatsion siyosat-ilm-fan, texnologiya va startaplarni qo'llab-quvvatlash;

Demografik siyosat - yoshlar, ayollar va aholining zaif qatlamlarini qo'llash.

Bu kabi qonunlar davlat siyosatida inson kapitali bahosini maksimalashtirishda huquqiy muhitni rivojlantirish va o'zaro hamkorlikni ta'minlashga qaratilgan qonunlar va siyosiy tadbirlarni o'z ichiga oladi. Huquqiy muhitning yanada rivojlanishi, yuridik tizimning barqarorligi, intellektual mulkni himoya qilish, korruptsiyaga qarshi kurashish, maqbul va adolatli sud tizimini ta'minlash kabi masalalar, davlat siyosati asosidagi muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Xulosalar. Xulosa qilib aytganda, inson kapitali va uni boshqarishning markaziy mexanizmi bo'lgan kadrlar siyosati har qanday loyihaning muvaffaqiyatiga bevosita va hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Maqola tahlili shuni ko'rsatadiki, loyiha menejmenti nafaqat texnologik, moliyaviy va vaqt chegaralari boshqaruvi, balki, birinchi navbatda, "jonli" resurs – inson omilini samarali boshqarish masalasidir. Inson

kapitali — XXI asrning eng muhim strategik resursi. Ta'lim, sog'liqni saqlash, ilm-fan, bandlik va innovatsiyalarni qamrab olgan kompleks siyosat davlatning iqtisodiy yuksalishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Inson kapitaliga oid loyihalar samarali boshqarilmasa, har qanday islohotlar natijasiz qoladi. Shuning uchun loyiha boshqaruvi, moliyalashtirish, monitoring, strategik rejalashtirish va normativ-huquqiy mexanizmlar o'zaro uyg'un bo'lishi kerak. Davlat siyosati inson kapitalining rivoji uchun asosiy drayver, uning samarali ishlashi esa mamlakatning global maydondagi o'rnini belgilab beradi.

Inson kapitali loyihalarini samarali boshqarish mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy o'sishi va ijtimoiy farovonligini ta'minlaydi. Ushbu jarayonda davlat siyosati markaziy o'rinda bo'lib, u strategik rejalashtirish, moliyalashtirish, huquqiy asos yaratish, monitoring va baholash tizimlari orqali loyihalarning muvaffaqiyatini belgilab beradi. Davlatning puxta ishlab chiqilgan, izchil va natijaga yo'naltirilgan siyosati inson kapitalining sifatini oshirish, raqobatbardosh iqtisodiyot barpo etish va fuqarolarning farovon hayotini ta'minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: "O'zbekiston", – 2021. – Б.264.
2. Becker H. Discontinuous change and generational contracts. – London, 2000;
3. Kohli M. Aging and justice. Research group on aging and life course. Research Report 74. – Berlin, 2005;
4. Thomson D. Selfish generations. The ageing of the welfare state. – Wellington, 1989;
5. Ортега-И-Гассет. Х. Восстание масс. – М.: АСТ Москва, 2008. – С. 249-347;
6. Галаева Е. В. Исследование человеческого капитала в зарубежной литературе: реферат книги Орда Нордхога «Человеческий капитал в организациях» // Общество и экономика. – 1997. – №7-8. – С. 244-255;
7. Назаров Н. Марказий Осиёда миллатлараро муносабатлар (ижтимоий-фалсафий таҳлил). Монография. – Тошкент: Global Books, 2018. – Б. 256.

8. Yunusova M. A (2024) Inson kapitalini rivojlanishini, moliyaviy ta'minlashining strategik yo'nalishlari va ularning usullari. World scientific research journal, 10(2), 120-122.

9. Abduvohidov A. Kamilova S. (2023). Inson kapitalining raqmi rivojlanishini baholash. Iqtisodiy tarqiqiyot va tahlil. 1(2), 5-14.

10. Bo'rixadjayeva. M. S. (2023). Yangi o'zbekistonda iqtisodiy tafakkurni shakllantirishning usullari. World scientific research journal, 12(2), 134-138.

11. Yahshiyev Sh. (2023) The oretical principles of financial security for the use of management of the economic system of Uzbekistan. Reserarch in devolepment: scientific and practical confereces part-1 2023 1/3 (42-45).

12. Azamaliyev Q. B (2021) Inson kapitalining davlat siyosatidagi ahamiyati. Научный журнал. Интернаука. 17(193), 72-74.